


TOSHKENT SHAHAR STATISTIKA BOSHQARMASI

JISMONIY VA YURIDIK SHAXSLARNING MUROJAATLARI

2019 yil yanvar - fevral holatiga


Toshkent shahar statistika boshqarmasiga 2019 yilning yanvar - fevral oyi holatiga jismoniy va yuridik shaxslardan 815 ta murojaatlar kelib tushgan. Tahlillarga ko'ra, murojaatlarning 49 foizi (400 ta) jismoniy shaxslar va 51 foizi (415 ta) yuridik shaxslarning murojaatlariga to'g'ri kelgan.

Murojaatlar turlari bo'yicha (soni birlikda)



Toshkent shahar statistika boshqarmasi rahbariyati tomonidan 5 marotaba tumanlarda sayyor qabullar o'tkazilgan. Ushbu sayyor qabullarda 7 ta yuridik va 7 ta jismoniy shaxslar vakillarining murojaatlari ko'rib chiqilgan.


Murojaatlar kelib tushishi bo'yicha (soni birlikda)



Kelib tushgan murojaatlarning mazmun mohiyati yuzasidan qilingan tahlillarga ko'ra:

- 376 tasi (jamiga nisbatan 46,1 foizi) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasidan ma'lumot so'rab berilgan arizalar;
- 146 tasi (18 foizi) Davlat statistika hisobotlari to'g'risida ma'lumot berish yuzasidan;
- 22 tasi (2,7 foizi) o'rtacha oylik ish haqi to'g'risida;
- 14 tasi (1,7 foizi) faoliyat turi kodini almashtirish to'g'risida;
- 13 tasi (1,6 foizi) korxonalar va tashkilotlarning yagona davlat registr bazasiga kiritish, chiqarish, statistik kodlar berish yuzasidan;
- 10 tasi (1,2 foizi) kichik tadbirkorlik subyekti mansubligi to'g'risida so'rab berilgan arizalar;
- 5 tasi (0,6 foizi) nafaqa hujjatlarini yuzasidan va rasmiylashtirish uchun ish staji, ish haqi to'g'risida arxiv ma'lumotlarini olish masalalari yuzasidan;
- 229 tasi (28,1 foizi) boshqa masalalarda kelib tushgan murojaatlarni tashkil etgan.

Murojaatlarning mazmun mohiyati bo'yicha (soni birlikda)



O'z faoliyatingizda statistika idoralari bilan bog'liq masala va muammolarga duch keldingizmi, statistik yoki tahliliy ma'lumot olishni xohlaysizmi, quyidagi telefon raqamlar va elektron pochta manziliga murojaat etishingiz mumkin.

Ishonch telefonlari:

(71) 230-88-07

(71) 230-88-08

Toshkent shahar
statistika boshqarmasi
rahbariyatiga bevosita
murojaat etish:

(71) 230-88-10

Elektron pochta
manzili -
info@toshstat.uz